

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**UMIRZAKOV ULUG‘BEK SINDAROVICH**

**FRANSUZ VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA KONTRASTNING  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERAT**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Umirzakov Ulug‘bek Sindarovich**

Fransuz va o‘zbek maqollarida kontrastning xususiyatlari..... 5

**Умирзаков Улугбек Синдарович**

Особенности контраста во французских и узбекских пословицах ..... 23

**Umirzakov Ulugbek Sindarovich**

Features of Contrast in French and Uzbek Proverbs..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**UMIRZAKOV ULUG‘BEK SINDAROVICH**

**FRANSUZ VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA KONTRASTNING  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.4.PhD/Fil3000 raqam bilan ro'yxatga olingan**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) veb-sahifaning (samdchi.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Yo'ldoshev Muso Muhammadiyevich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Mamatqulov Abdulkapiz Latipovich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «28» may soat 1200 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axbopot-resurs markazida tanishish mumkin 61867 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 -yil «13» may kuni tarqatildi.  
(2025-yil «13» may dagi № 21 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z.Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A.Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi, tildagi mavjud hodisalar mohiyatini ochishga antroposentrik nuqtayi nazardan yondashuv, ayniqsa, paremiologiya bilan bog‘liq jihatlar zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu boisdan ko‘plab lingvistik izlanishlarda paremiologiya bilan bog‘liq muammolarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur masala doirasida qaraluvchi hodisalar va ularning mohiyatini ochish, o‘zaro yondosh hodisalarning farqli va mushtarak xususiyatlarini aniqlash, bu birliklarning lingvokognitiv, lingvopragmatik imkoniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo lingvistikasida xalq turmush tarzida sodir bo‘layotgan o‘ziga xos o‘zgarishlarga bog‘liq tarzda milliy-ma‘naviy qadriyatlar qiyoslanayotgan tillarda aks etishini ilmiy o‘rganishda paremiologiya, xususan, maqollarning tutgan o‘rni, tillararo aloqalarning maqollar tabiatiga ta‘sirini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bunday masalalar doirasiga o‘zbek va fransuz xalq maqollarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqot olib borish, o‘rganilishi nazarda tutilayotgan lingvistik masalalarga yechim topish ham dolzarblik kasb etadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda boshqa sohalar singari tilshunoslik taraqqiyoti borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu borada qiyosiy-tipologik tadqiqotlar alohida darajaga ko‘tarildi. Tilning turli sathlari o‘zbek tiliga qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan qiyosiy hamda chog‘ishtirma aspektda tadqiq etilmoqda. Bu o‘z navbatida “bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash, va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”<sup>1</sup>. Shunga ko‘ra, o‘zbek va fransuz xalq maqollarini qiyoslab o‘rganish, ular orasidagi o‘xshash va farqli xususiyatlarni fransuz va o‘zbek tillari tizimida kontrastning o‘rnini aniqlash bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq etish dolzarblik kasb etadi. Mazkur masala doirasida tadqiqot o‘tkazish o‘zbek va fransuz tillaridagi maqollarni struktur tarkibi, leksik-semantik tafovuti ushbu tillarning milliy modellarini ochib berishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF 5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ 2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ 2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ 3151-son “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4561730> (Murojaat sanasi : 06.04.2022).

ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ 5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son Qarori bilan "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risida"gi Nizomi, 2020-yil 11-martdagi "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsiyon g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida xalq maqollarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga doir ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan (V.I.Dal, I.I.Ilyustrov, A.A.Potebnya, M.B.Porxomovskiy, G.N.Yusifov, A.Annanurov, C.Schapira, J.-P. K. Zuogbo, A.Bayi, F.Montreno, S.Furne, E.Schulze-Busacker, M.M.Elkbir, E.Klet va boshqalar)<sup>2</sup>.

O'zbek tilshunosligida A.E.Mamatov, B.Yo'ldoshev, Y.Pinxasov, A.Jo'raxonov, M.To'ychiyev, H.Abdurahmonov, M.Hakimov, Sh.Shorahmedov, M.Temirova, H.Berdiyev, R.Rasulov, Sh.Shomaqsudov, B.Jo'rayeva, I.M.Mirzaaliyev, Sh.Sh.Qalandarov, M.Sadriddinova, P.U.Bakirov, I.K.Mirzayev kabi olimlar izlanishlar olib borishgan<sup>3</sup>. O'zbek tilshunosligida maqolning sintaktik

---

<sup>2</sup> Даль В.И. Русские народные пословицы и поговорки. – М.: Художественная литература, 1989. – 433 с.; Иллюстров И.И. Жизнь русского народа в его пословицах и поговорках. Изд. 3. – Москва: т-во скоропечатни А.А. Левенсон, 1915. – 480 с.; Потебня А.А. Из лекций по истории словесности. Басня, пословица, поговорка. – Харьков, 1894. – 170 с.; Порхомовский М.В. Язык турецких пословиц (грамматический и лексический аспекты): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2009. – 29 с.; Порхомовский М.В. Турецкие пословицы в языке и речи. – Москва: Языки славянской культуры, 2014. – 176 с.; Юсифов Г.Н. Лексикостилистические особенности азербайджанских пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку, 1969. – 24 с.; Аннануров А. Синтаксические особенности туркменских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1960. – 15 с.; Schapira, C. Les stéréotypes en français: proverbes et autres formules. – Paris: Éditions Ophrys, 1999. – 172 p.; Zouogbo J.-P. C. Le proverbe entre langues et cultures. – Bern: Peter Lang, 2009. – 361 p.; Bailly A. Dictionnaire grec-français. – Paris: Hachette, 2000. – 2230 p.; Montreynaud F., Pierron A., Suzzoni F. Dictionnaire de proverbes et dictons. – Paris: Le Robert, 1986. – 667 p.; Fournet S. Etude descriptive des proverbes dans la littérature hispanique médiévale et pré-classique et de leur fonctionnement au sein des mécanismes de l'argumentation: Thèse pour obtenir le grade de docteur de l'Université de Limoges. – Limoges: Presses universitaires de Limoges, 2005. – 424 p.; Schulze-Busacker E. Proverbes et expressions proverbiales dans la littérature narrative du Moyen Age français. – Paris: H.Champion, 1985. – 356 p.; Elkbir M.M. Analyse sémio-linguistique des noms propres dans les proverbes libyens: Thèse pour obtenir le grade de docteur de l'Université de Lorraine. – Lorraine: Presses universitaires de Lorraine, 2015. – 305 p.; Klett E. Études contrastives français-espagnol. – Buenos Aires: Editores Asociados, 2020. – 182 p.

<sup>3</sup> Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. – 274 б.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал услубий хусусиятлари: Филол.фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзбФА, Ўзбек тили ва адабиёти институти, 1993. – 50 б.; Пинхасов Я. Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимджана: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, Институт языка и литературы им. А.С. Пушкина, 1953. – 18 с.; Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек

xususiyatlari X.Abdurahmonovning nomzodlik ishida o'rganilgach, olim izlanishlarini davom ettirib, o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari tilining sintaktik xususiyatlarini atroflicha tadqiq etdi. Keyingi ishda o'zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gaplar va so'z birikmalarining asosiy ko'rinishlari, ularning morfologik, sintaktik, ba'zi ma'noviy-uslubiy xususiyatlari keng yoritilgan<sup>4</sup>. P.Bakirovning tadqiqotida nominasentrik maqollarning semantik va struktur xususiyatlari rus, o'zbek va qozoq tili materiallari asosida batafsil o'rganilgan<sup>5</sup>.

B.Jo'rayeva o'zining "O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida ta'kidlashicha, maqolning boshqa paremik va barqaror birliklar bilan o'zaro munosabati masalasiga oydinlik kiritish, maqol paydo bo'lishining lingvistik asoslarini, kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini ochib berish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi<sup>6</sup>.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Qiyosiy tipologiya va tarjimashunoslik" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek va fransuz xalqi maqollarining olamning lisoniy manzarasida tutgan o'rnini, ulardagi o'xshash va farqli jihatlarni, kontrast hodisasining lingvokognitiv fenomen sifatida paremiologiyada tutgan o'rnini ochib berishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

---

тили ва адабиёти, №4. – Тошкент: ЎзбФА, 1974. – Б. 52-55.; Тўйчиев М. "Шинелли йиллар" романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши // Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. – Самарқанд: СамДПИ, 1971. – Б. 84-87; Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Тошкент: Фан, 1971. –184 б.; Ҳакимов М.Х. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1993. – 168 б.; Шораҳмедов Ш. Мақолларнинг пайдо бўлишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, №4. – Тошкент: Ўзб.ФА, 1971. – Б. 31-34; Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фан. фалс. д-ри... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Бердиев Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 288 б.; Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзб.СЭ, 1990. – 528 б.; Жўраева Б. Мақолларда синонимия ҳодисаси // Ўзбек тили ва адабиёти, №5. – Тошкент: Ўзб.ФА, 2000. – Б.58; Мирзаалиев И.М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси: Филол.фан. фалс. док. ... дис. автореф. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги ТДЎТАУ, 2020. – 59 б.; Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвимаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол.фан. фалс. док. ... дис. автореф. – Фарғона: ФарДУ, 2019. – 41 б.; Садриддинова М.З. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, Институт языка и литературы им. А.С. Пушкина, 1985. – 26 с.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках: Дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент: Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, 2007. – 286 с.; Мирзаев И.К., Нарзикулов А.М. Французско-узбекские паремиологические параллели. – Самарқанд: СамГУ, 1981. – 67 с.

<sup>4</sup> Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Тошкент: Фан, 1971. – 184 б.

<sup>5</sup> Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дисс. ... докт. филол. наук. – Тошкент, 2007. – 286 с.

<sup>6</sup> Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ...дисс. – Самарқанд, 2002. – Б.5; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 24 б.; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, СамДЧТИ, 2019. – 74 б.

tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi tushunchasi va paremiyalarni lisoniy olam komponenti sifatida tadqiq qilinishi bilan bog‘liq ilmiy materiallarni to‘plash, ularga munosabat bildirish va tavsiflash;

kontrast hodisasi va uning mohiyati tavsifiga, kontrast-tafakkur-so‘z va ularning bir-birini taqozo qilishini ta‘minlovchi leksik-grammatik vositalar o‘rnini ochib berish;

badiiy matnda kontrast hodisasini ifodalovchi vositalarining umumiy va farqli xususiyatlariga, uni ifodalovchi omil va usullarga aniqlik kiritish;

o‘zbek va fransuz maqollarida kontrastning lingvokognitiv va leksik-semantik jihatdan o‘ziga xosliklarini va ularning badiiy-estetik imkoniyatlarini misollar asosida dalillash.

**Tadqiqotning obyektini** sifatida o‘zbek va fransuz kontrastiv maqollari olindi.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek va fransuz xalq maqollarida kontrast ma‘nosini tahlil qilish masalalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda qiyoslash, chog‘ishtirish, distributiv tavsiflash, tasniflash, statistik, transformatsiyon tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

fransuz va o‘zbek xalq maqollarida kontrast asosini tashkil qiluvchi kontrastlar, kontradiktor, leksik va grammatik antonimlar o‘zlarining leksik-semantik maydoniga ko‘ra lingvokognitiv omillar bilan aloqadorligi, kontrastni ifodalovchi maqollarni lug‘aviy tarkibini aniqlash va tahlilga tortish orqali isbotlangan;

fransuz va o‘zbek maqollarining lisoniy olam manzarasida obrazlilik, variativlik, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi sababli muhim o‘rin tutishi, xalq ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq lingvomadaniy hodisalarni tasvirlash uchun xizmat qiluvchi kognitiv tuzilma ekanligi kontrastli maqollar misolida ochib berilgan;

fransuz va o‘zbek xalq maqollarining o‘ziga xos semantik maydonga birlashadigan bilimdonlik, donolik, mehnatsevarlik, zukkolik kabi umumlashtiruvchi va mehnatsevarlik, hurmat-izzat, vaqtichog‘lik, oila, do‘stlik semantik maydonidagi farqlovchi jihatlari aniqlangan;

fransuz va o‘zbek xalq maqollarining leksikografik manbalarini o‘rganish va tahlilga tortish natijasida lingvomadaniy aloqalarni aks ettiruvchi kontrastiv maqollar bazasi ajratib olingan va ularning leksik-semantik maydoni shakllantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o‘zbek va fransuz tili lisoniy olam manzarasida maqollarning farqli va o‘xshash jihatlari ochib berilgan;

maqollarning paremiologiya doirasida qaraluvchi yondosh hodisalardan ajralib turuvchi xususiyatlarga ega ekanligi isbotlangan;

kontrast o‘zbek va fransuz tillarida paremiologik olam manzarasida lingvokognitiv fenomen sifatida inson va u bilan bog‘liq arxisemali guruhlarni shakllantirishi mumkinligi dalillangan;

o‘zbek va fransuz xalq maqollarida kontrast hodisasining tutgan o‘rnini aniqlash har ikki xalqda paremiologik olam manzarasi to‘g‘risidagi tushunchalarni

shakllantirish, ularda qo'llanuvchi leksik-semantik guruhlarini tadqiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** o'rganilayotgan obyektga yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, ishda berilgan nazariy ma'lumotlarning o'zbek va fransuz tillaridagi ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan paremiologik manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar distributiv qiyoslash, transformatsiyon tahlil uslublari asosida chiqarilgani, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari zamonaviy usullar tatbig'ida yechilganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek va fransuz xalq maqollarining lisoniy olam manzarasida tutgan o'rni, paremiologiya doirasida qaraluvchi hodisalarning o'zaro munosabati, maqollarda kontrast hodisasining namoyon bo'lishiga doir muammolarni hal qilishda nazariy asos bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, erishilgan xulosalar o'zbek va fransuz maqollarining zamonaviy tilshunoslik mezonlari asosida to'liq tadqiqi uchun, paremiologiya doirasida o'rganiluvchi hodisalar o'rtasidagi munosabatga aniqlik kiritishda asosiy manba vazifasini o'taydi. Kontrastning maqollarda lingvokognitiv fenomen sifatida ishtirok etishini ilmiy talqin qilishda, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishda muhim ilmiy-nazariy manba vazifasini o'taydi, tillarni qiyosiy o'rganish bo'yicha rejalashtirilgan sohaviy fanlardan darsliklar, qo'llanmalar, ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar tayyorlashda muhim amaliy material bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriylanishi.** Fransuz va o'zbek maqollaridagi kontrastni shakllantiruvchi lisoniy vositalar tahlili asosida:

fransuz va o'zbek xalq maqollarida kontrast asosini tashkil qiluvchi kontrarlar, kontradiktor, leksik va grammatik antonimlar o'zlarining leksik-semantik maydoniga ko'ra lingvokognitiv omillar bilan aloqadorligi kontrast ifodalovchi maqollar lug'aviy tarkibini aniqlash va tahlilga tortish orqali isbotlangan. Ushbu natijadan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2021-2023-yillarda bajarilgan "O'zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2024-yil 5-yanvardagi 05/01.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek tilining milliy korpusini loyihalashda kontrastiv maqollarning o'rni alohida ta'kidlangan va loyiha doirasida tayyorlangan maqolalar va monografiyalarning ilmiy saviyasini oshirishga erishilgan;

fransuz va o'zbek maqollarining lisoniy olam manzarasida obrazlilik, variativlik, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi sababli muhim o'rin tutishi, xalq ijtimoiy hayoti bilan bog'liq lingvomadaniy hodisalarni tasvirlash uchun xizmat qiluvchi kognitiv tuzilma ekanligini kontrastli maqollar misolida ochib berish bilan bog'liq xulosalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqi tomonidan

Erasmus + dasturining 2016-2018 yillarga mo'ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMU+CBHE IMEP: O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish nomli loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 19-yanvardagi 129/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, fransuz va o'zbek kontrastiv maqollaridan lingvomadaniy hodisalarni tasvirlash uchun xizmat qiluvchi kognitiv tuzilma sifatida foydalanilgan va loyiha doirasida yaratilgan o'quv jarayoni uchun tayyorlangan manbalarning takomillashuviga erishilgan;

fransuz va o'zbek xalq maqollarining o'ziga xos semantik maydonga birlashadigan bilimdonlik, donolik, mehnatsevarlik, zukkolik kabi umumlashtiruvchi va mehnatsevarlik, hurmat-izzat, vaqtichog'lik, oila, do'stlik semantik maydonidagi farqlovchi jihatlari aniqlangan va undan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2023-yil 12-dekabr kuni efirga uzatilgan "Assalom Samarqand" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 22-dekabridagi 01-07/404-son ma'lumotnoma). Natijada, fransuz va o'zbek xalq maqollarining o'ziga xos semantik maydonga birlashadigan umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlari dastur uchun foydali deb topilgan va ulardan foydalanish orqali ko'rsatuvning konseptual samaradorligi ta'minlangan;

fransuz va o'zbek xalq maqollarining leksikografik manbalarini o'rganish va tahlilga tortish natijasida lingvomadaniy aloqalarni aks ettiruvchi kontrastiv maqollar bazasi ajratib olingan va ularning leksik-semantik maydoni shakllantirilgan va ulardan Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladigan manba sifatida Samarqanddagi Alliance Française kutubxonasini fransuz tilining akademik turdagi izohli lug'atlari hamda ixtisoslashtirilgan lug'atlar fondini yaratishda foydalanilmoqda (Fransiyaning O'zbekiston Respublikasidagi elchisining fan va madaniyat attashesi Serj Bellining 2024-yil 24-yanvardagi ma'lumotnomasi). Natijada, Samarqanddagi Alliance Française kutubxonasini fransuz tilining akademik turdagi izohli lug'atlari hamda ixtisoslashtirilgan lug'atlar bilan ta'minlash ishlari samaradorligi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 5 ta ilmiy maqola, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning asosiy matni 133 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va himoyaga olib chiqilgan asosiy mazmunlar bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi tadqiqi muammosi”** deb nomlangan birinchi bobida jahon tilshunoslarining olam manzarasi tushunchasi yuzasidan olib borgan ilmiy izlanishlari tahlil etilgan. Olam manzarasini oʻrganishning asosiy aspektlari keltirilgan, uning maʼnoviy tarkiblari va ularni voqelantiruvchi lisoniy birliklar – paremiyalar va uning komponentlarini talqin qilish boʻyicha bajarilgan tadqiqotlarning sharhi berilgan. Fransuz va oʻzbek lingvomadaniyatlari materialida olam manzarasi xususiyatlarini oʻrganishning asosida turgan paremiyalar mazmun tuzilmasi muammosi boʻyicha ishlardagi muhim yoʻnalishlar, munozarali va hal qilinmagan masalalar, shuningdek, amalga oshiriladigan tadqiqotning nazariy asoslari aniqlangan.

Fan sohalarida keyingi yillarda ancha faol qoʻllanilayotgan *olam manzarasi tushunchasi*, avvalo, olamning kishi ongida aks etgan koʻrinishi, obrazi, uning oʻziga xos tarzda shakllangan modeli boʻlib, unda kasbiy, tabaqaviy, etnik, diniy, lisoniy kabi ijtimoiy guruhlar va individlarga xos boʻlgan olam qurilishidan tortib yaqin doiragacha, faoliyatning oʻsha lahzadagi kontekstigacha boʻlgan voqelik haqidagi tasavvurlari tizimi aks etadi<sup>7</sup>. Olam manzarasi tushunchasi bugungi kunda fanning koʻplab sohalariga kirib bordi va unga singib ketishga, boshqacha aytganda, “oʻziniki” boʻlishga ulgurdi. Antropologiyada bu atama 1950-yillardan muomalaga kirdi va keng qoʻllanila boshladi. Amerikalik antropolog olim R.Redfild u yoki bu xalqning madaniyatini oʻrganish uchun, albatta, olamga shu madaniyat sohiblari koʻzi bilan qarash lozimligini, olam manzarasi turgʻun emasligini va madaniyatning barcha vakillari uchun birday taalluqli ekanligini qayd etar ekan, anʼanalarda xalqning oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatadi va dehqonlar olam manzarasi, shaharliklar olam manzarasi yoki “maktab va ibodatxonalar” (katta anʼana) hamda qishloq jamoasi olam manzarasi (kichik anʼana) kabi turlarga boʻladi<sup>8</sup>. Fan olamida nemis fizik olimi G.Gerts oʻz tadqiqotlarida ilk marotaba ilmiy muomalaga “olamning fizik manzarasi” terminini olib kirdi<sup>9</sup> va mazkur masalaga aloqador ishlarni sinchiklab oʻrgandi hamda tashqi olam obyektlari haqidagi tushunchalarni tadqiq etgan tadqiqotchilar ishlarini keng koʻlamda tahlilga tortdi, ularga munosabat bildirib, oʻz nuqtayi nazaridan izohlashga harakat

<sup>7</sup>Картина мира/Большая российская энциклопедия [Elektronniy resurs]. – URL: <https://bigenc.ru/philosophy/text/2049399> (murojaat sanasi: 26.03 2022)

<sup>8</sup>Редфилд Р. Социальная организация традиции [Elektron resurs]. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/2016-02-020-redfild-r-sotsialnaya-organizatsiya-traditsii-perevod-s-angl-redfield-r-the-social-organization-of-tradition-redfield-r-peasant> (Murojaat sanasi: 26.03.2022)

<sup>9</sup>Герц Г.Р. Принципы механики, изложенные в новой связи. – Перевод В.Ф. Котова и А.В. Сулимо-Самуйло. – М., Издательство АН СССР, 1959. – С. 16.

qildi. Olimning qarashlari albatta, beiz ketmadi. U fan sohalari tadqiqotchilarida qiziqish uyg'otdi va munosabat bildirishga turtki berdi. Natijada keyinchalik olamning biologik, kimyoviy, tabiiy, ilmiy, diniy, falsafiy manzaralari to'g'risidagi qarashlar yuzaga keldi. Olamni idrok qilishda olamning lisoniy manzarasi tushunchasi ham muhim o'rin tutadi. Tilshunoslikda keyingi yillarda lisoniy omillarning olam manzarasi teran qatlamlarining shakllanishida muhim rol o'ynashi to'g'risidagi tasavvurlari keng ommalashdi. Bunda tilning tuzilishi o'sha tilda gaplashuvchilarning dunyoqarashi va mavjud voqelikni idrok qilishiga ta'sir qiladi<sup>10</sup>.

Olamning lisoniy manzarasi tadqiqida tabiiy tillar universal mohiyati, semantika va kognitiv tilshunoslikda muhim rol o'ynovchi individual xususiyatlar aniqlanadi. Olamning lisoniy manzarasi qurilishi, masalan, olamning rus lisoniy manzarasi<sup>11</sup> u yoki bu til yoki madaniyatga oid (boshqa tillarda ekvivalenti bo'lmagan) muhim tushunchalarning kompleks tahliliga asoslanib o'tkaziladi<sup>12</sup>.

Lisoniy olam manzarasi haqida fikr yuritish paremiyalar to'g'risida ham ma'lumot berishni taqozo qiladi. Chunki paremiyalar tilning bugungi kundagi holati to'g'risidagina emas, balki uning o'tmishi, lisoniy olam manzarasida muhim hisoblanuvchi birliklarning kelib chiqishi va shakllanishi, taraqqiyot yo'li, semantik o'zgarishlarga uchraganligi, semantik doirasining kengayishi yoki torayishi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar berishi shubhasiz.

Inson tug'ilgandan boshlab o'zini o'rab turgan olamni bilishga qiziqadi. Olam haqidagi tasavvurlarini xayolida obrazlar sifatida shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida inson faoliyati, xususan, nutqiy faoliyatga borib taqaladi. Shunisi ma'lumki, nutqiy muloqot sodir bo'lmas ekan, kishilar orasida aloqa, xabar berish yoki olish, ta'sirlanish yoki ta'sir etish jarayonlari sodir bo'lmaydi. Demak, lisoniy olam manzarasi doirasida qaraluvchi til birliklarining uslubiy imkoniyatlari, nutqiy vaziyatdan va so'zlovchining maqsadidan kelib chiqib, o'ziga qo'shimcha xizmat olishi, ya'ni tinglovchi yo o'quvchiga ta'sir etishi, badiiy-estetik zavq bag'ishlash kabi ko'p qirrali faoliyat amalga oshishi uchun ham unga bevosita maydon talab qilinadi. Mana shu holat talablarini nazarda tutgan professor Sh.Safarov aniq va ilmiy, asosli fikrlarni bildiradiki, u mavzu mohiyatini to'liq tushunishimizga yordam beradi. Olimning fikricha: Nutqiy muloqotni faoliyat va o'ziga xos bir sistema sifatida tushunish uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat ekanligini sharhlashni talab qiladi. Muloqotning umumiy modelida tarkibiy qismlar o'z aksini topgan. Shunga ko'ra ularni ikki guruhga, ya'ni tashqi va ichki guruhlarga ajratish mumkin. Muloqotning tashqi omillari (tarkibiy qismlari) muloqotning maqsadi,

---

<sup>10</sup> Гумбольдт В. О сравнительном изучении языков // История языкознания XIX-XX вв. в очерках и извлечениях. Сост. В.Л. Звегинцев. – Т.1. – М.: Прогресс, 1964. – 329 с.; Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, Универс, 1993. – С. 118-138.; Уорф Б.Л. Отношение норм поведения и мышления к языку//Новое в лингвистике. Вып.1. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960. – С. 135-168.

<sup>11</sup> Апресян Ю.Д. Избранные труды. Т.2. Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: Языки русской культуры, 1995. – 767 с.; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.; Вежицкая А. Языковая картина мира как особый способ репрезентации образа мира в сознании человека// Вопросы языкознания, №6. – М.: РАН, 2000. – С. 33-38.

<sup>12</sup> Комплексный анализ понятий как язык и культура [Elektronniy resurs]. – URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=21455608> (murojaat sanasi: 09.11.2022)

undagi tinglovchi va soʻzlovchining maqsadi, muloqot voqelanayotgan shart-sharoit, vaziyat kabilarni kiritish mumkin. Chunonchi, muloqot maqsadi muloqot mazmunini belgilaydi. Vaziyat uning shaklini va koʻp hollarda muloqotning ichki tarkibiy qismi boʻlgan lisoniy va nolisoniy omillar tabiati va turlarini belgilaydi. Shunday qilib, muloqotning ichki omillariga: lisoniy va nolisoniy vositalarni kiritish toʻgʻri boʻladi. Muloqotning “salomlashish” bosqichida muloqot ibtidosini belgilovchi salomlashish, koʻrishish, soʻrashish kabi lisoniy birliklar: soʻz, soʻz birikmalari, undov va hokazolar muloqotning ichki omili sifatida uning lisoniy vositasi sanaladi. Bu vositalar bir necha paradigmatlarni oʻz ichiga oladi.<sup>13</sup>

Koʻrinadiki, nutqiy muloqot lisoniy olam manzarasida markaziy tushunchalardan hisoblanadi. Olim yuqorida qayd etgan nutq bosqichlari davomida soʻzlovchi, avvalo, muloqotdan nima maqsad qilganligi, kim bilan muloqotga kirishayotganligi, uning oʻziga nisbatan salohiyati, yoshi, gender xususiyatlarini hisobga olgan holda munosabatga kirishadi. Ana shu oʻrinda nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, soʻz va jumlar qatori paremiyalar, asosan maqollarga ham murojaat qiladi.

Paremiyalar – insoniy muloqotlarning zaruriy elementi, tilning asosiy birliklari va belgisi. Bu belgilar oʻziga xos maʼlumotlarni yetkazadi, tipik hayotiy va fikriy vaziyatlarni yoki u yoki bu obyektlar oʻrtasidagi munosabatlarni bildiradi. Dunyoning barcha xalqlari paremiyalari aynan bir xil tipik vaziyatlarni ifodalaydi, mantiqiy mazmuniga koʻra oʻxshash boʻladi, faqat obrazlar (detallar, realiyalar) bilan farq qiladi va ular yordamida mantiqiy mazmun yetkaziladi<sup>14</sup>.

Dunyoda maqolsiz xalqning oʻzi yoʻq. Maqol barcha xalqlar tilida bor, ular asrlar davomida shakllanib ulgurgan, oʻzgarimas shaklga kelib qolgan. Ularning ayrimlari davr oʻtishi bilan isteʼmoldan chiqib qolgan boʻlsa-da, badiiy matnlarda yashab kelmoqda. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan maqollarning aksariyati zamirida qarshilantirish, zidlash munosabati yotadi. Bunday munosabat kontekstual situativ xarakterda ham boʻladi. Antonimik munosabat nutq vaziyatida, yaʼni soʻzlarni maʼlum kontekstda qoʻllash orqali voqe boʻladi. Masalan, tilimizda “L’argent est un bon serviteur et un mauvais maître” [Pul yaxshi xizmatchi, lekin yomon xoʻjayindir], “La vérité est une dame que l’on replonge volontiers dans son puits, après l’en avoir tirée” [Haqiqat bir ayolki, u yuzaga chiqqandan soʻng, uning qudugʻiga oʻz xohishing bilan botasan]; “L’ami de tout le monde n’est l’ami de personne” [Hammaning doʻsti hech kimning doʻsti emas] kabi maqollarda ham shu holat kuzatiladi. Bunday qarama-qarshi qoʻyish, zidlash natijasida hosil boʻlgan antonimlar kontekstual antonimlar deb ataladi. Kontekstual antonimlar koʻpincha individual, biror bir muallifga xos boʻladi.

Oʻzbek tilshunosligida ham fransuz tilshunosligida ham paremiyalar lingvomadaniyatshunoslik obyektining ajralmas qismi hisoblanadi. Paremiyalarda oʻzi mansub boʻlgan xalqqa xos dunyoqarash, voqelik faktlariga milliylik nuqtayi nazaridan baho berish sezilib turadi. Fanda shu vaqtga qadar paremiyalar, asosan,

<sup>13</sup> Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, СамДЧТИ, 2007. – Б.34.

<sup>14</sup> Что такое поговорка в лингвистике [Elektronniy resurs]. – URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki> (Murojaat sanasi: 15.12.2022)

xalq og‘zaki ijodining kichik janrlari sifatida adabiyotshunoslarning diqqat markazida bo‘lgan. Keyingi yillarda bu janrlarning lingvistik tabiatini o‘rganishga oid ishlar ham maydonga kelmoqda.

Paremiologiyaga doir tadqiqotlarda paremiya sifatida, asosan, maqol tushuniladi va unga “xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma‘noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning orttirgan tajribalari, ijtimoiy munosabati, ular tomonidan sodir etilgan voqea-hodisalar, ruhiy, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy va salbiy fazilatlarini mujassamlashgan<sup>15</sup> deb ta‘rif beriladi. Maqolga xos bo‘lgan xususiyatlarning ayrimlari adabiyotning kichik janr deb hisoblanuvchi boshqa turlarida ham uchraydi. Shu bois maqol nisbatan keng tushunchani ifodalaydi. Maqollar o‘ziga xos uslubga ega. Maqol ba‘zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi<sup>16</sup> deb ham yuritilgan.

Paremiyalarni tadqiq qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda maqollarning paremiologiya markazi hisoblanishi va mazkur ko‘lamda qaraluvchi boshqa turlardan grammatik qurilishi mukammalligi, sintaktik to‘liqligi, semantik jihatdan butun ekanligi qayd etiladi va boshqa turlar tadqiqida ham, aynan, maqol bilan qiyoslab o‘rganishga harakat qilinadi. Shu o‘rinda alohida qayd etish lozimki, ommaga mo‘ljallab nashr qilingan lug‘atlarda maqolga ta‘rif berishda soddalikka, ya‘ni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan baho berishga intilganligi seziladi.

Maqol – qisqa, chuqur ma‘noli, nutqda keng qo‘llanadigan, barqaror shaklga ega xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri. Maqollar xalqning, millatning intellektual, madaniy, ma‘rifiy, ma‘naviy saviyasini qisqa va lo‘nda fikrlarda ifoda etish darajasidir. Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga keladi. Maqollar xilma-xil mavzularda bo‘lib, turmushning turli masalalarini qamrab oladi. Maqol nutq jarayonida muayyan vaziyatda fikrni lo‘nda, ta‘sirchan, obrazli tarzda ifodalashda juda ham qo‘l keladi. Ko‘pincha o‘git, nasihat mazmunida bo‘ladi. Maqol o‘z tabiatiga ko‘ra, nutqda ko‘chma yoki o‘z ma‘nosida ifodalanadi, ya‘ni ba‘zi maqollar ko‘chma ma‘noda (“Qush uyasida ko‘rganini qiladi”), ba‘zan o‘z ma‘nosida (“Dehqon bo‘lsang, shudgor qil”) ishlatiladi<sup>17</sup>.

Milliy ruh, milliy mentalitetning tildagi ko‘rinishi hisoblanuvchi maqollar shu tilning o‘ziga xosligini namoyon etuvchi bir ifoda vositasidir. Ana nima uchun maqollarning qo‘llanilish ko‘lami benihoya keng, chunki to o‘tmishdan hozirgi kungacha o‘zaro jonli muloqot va nutqiy faoliyatlarda, tarixiy, badiiy, ilmiy va ilmiy-fantastik asarlarda, siyosiy va ilmiy-ommabop adabiyotda uzluksiz o‘z ifodasini topib kelgan va shu xalq milliy xarakterining tildagi ifodasidan biri sanaladi.

Tadqiqotning “**Kontrast hodisasi**” deb nomlangan ikkinchi bobi kontrast hodisasi va unda tafakkur hamda so‘zning o‘rni, badiiy matn va kontrast hodisasi,

<sup>15</sup> O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi [Elektron resurs]. – URL: <https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/lugatlar/>–Б.340 (Murojaat sanasi: 10.01.2023)


<sup>16</sup> Maqol [Elektron resurs]. – URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ozbek-xalq-maqollari.html> (Murojaat sanasi: 15.01.2023)

<sup>17</sup> Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳи. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2010. – Б.366.

badiiy matnda kontrast ifodalovchi vositalar kabi tushunchalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Inson hayotida dialektikaning asosiy qonuniyatlaridan biri bo‘lgan o‘zaro qarama-qarshiliklar birligi va kurashishi amal qiladi. Ilmiy nuqtayi nazardan ziddiyat qonuni (mantiqda) – ikki qarama-qarshi fikr ayni bir vaqtda va ayni bir nisbatda to‘g‘ri bo‘lishi mumkin emasligini ko‘rsatuvchi qonun. Predmetlar va hodisalar o‘rtasidagi obyektiv munosabat to‘g‘ri fikrlash jarayonida inson miyasida bir fikr bir vaqtning o‘zida ikki ma’noda ishlatilmasligini taqozo qiladi. Bu to‘g‘ri fikrlash va chin muhokamalarning ajralmas xossaligidan biridir. Ziddiyat qonuni tafakkur rivojida qarama-qarshi fikrlar to‘qnashuvini inkor etmasdan, bir vaqtning o‘zida bir predmet haqida ikki zid fikrga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi, ya’ni vaqt, predmet, nisbat jihatdan birlikni nazarda tutadi. Masalan, yomg‘irni umuman zararli yoki foydali deb bo‘lmaydi, u ma’lum davrda ma’lum o‘simliklar uchun zararli, boshqa bir davrda foydali bo‘lishi mumkin. Ziddiyat qonunining buzilishi tafakkurda chalkashliklarga va noto‘g‘ri xulosalarga olib keladi<sup>18</sup>.

Inson mavjud ekan, hayotdagi ziddiyatlar birligi va kurashish qonuniga amal qilib yashashga majbur. Shuning uchun uning faoliyatida, xarakter-xususiyatida, voqelikka munosabatida bu ijobiy va salbiy xususiyatlar u yoki bu darajada yashaydi. Bu xususiyatlar 1-rasmdagi ven diagrammasida o‘z aksini topgan. Binobarin, Navoiy kabi hassos shoirlarning ezgulikni ulug‘lash, yovuzlikni qoralashga yo‘naltirilgan asarlari hamma davrlarda ham jamiyat manfaatlariga birday xizmat qilaveradi<sup>19</sup>.



**1-rasm. Insoniy munosabatlar**

Inson tafakkurining nutqda voqelanishi so‘z vositasida amalga oshiriladi. “So‘z – tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim struktur-ma’noviy birligi; o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, borliqdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko‘inishi. So‘z gap uchun quriliush materiali bo‘lib xizmat qiladi, lekin undan farqli ravishda, xabar yoki tugal fikr bildirmaydi. O‘zida leksik va

<sup>18</sup> Ziddiyat qonuni [Elektron resurs]. – URL : <https://qomus.info/encyclopedia/cat-z/ziddiyat-qonuni-uz> (Murojaat sanasi: 25.03.2023)

<sup>19</sup> Ziddiyat qonuni haqida [Elektron resurs]. – URL: [https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy\\_axborot/ilmiy\\_axborot\\_1\\_son\\_2023.pdf](https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_1_son_2023.pdf) (Murojaat sanasi : 06.04.2023)

grammatik ma'noni birlashtirgan holda so'z muayyan so'z turkumiga mansub bo'ladi, o'z tarkibida muayyan til tizimida oldindan tayin bo'lgan barcha grammatik ma'nolarni ifodalaydi"<sup>20</sup>. Ko'rinadiki, so'z ham, va unga bog'liq boshqa hodisalar ham falsafiy atamalarga, tafakkur shakllariga, xususan, tushunchaga borib bog'lanadi. Tushuncha – narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli.

“Kontrast” termini stilistik tahlilda keng qo'llaniladi va hozirga qadar o'zining qat'iy va aniq ta'rifiga ega bo'lmadi. O.S.Axmanova kontrastning nutq figurasi ekanligi, leksik-frazeologik, fonetik va grammatik birliklarning voqelikni badiiy kontrast idrok qilish natijasida yuzaga kelishini qayd qiladi<sup>21</sup>. G.V.Andreeva kontrastni “mavjud voqelikdagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarni tilning turli sathlariga oid vositalar yordamida ta'sirchan estetik aks ettirish” sifatida baholaydi<sup>22</sup>. Kontrast, fikrimizcha, badiiy matnda muallif va o'quvchining, shuningdek, og'zaki nutqda so'zlovchi va tinglovchining yoritilayotgan voqeahodisa haqida aniq bir tasavvurga ega bo'lishiga xizmat qiladigan vositadir. Masalan: *Le chien aboie, le vent emporte* (It hurar, karvon o'tar; *Ce que le sobre tient au coeur est sur la langue du buveur* (Hushyorning qalbidagi, ichuvchining tilida; Mastlik rostlik); *C'est la poule qui chante qui a fait l'œuf* (Qaqaqlayotgan tovuq tuxum tug'di; Qaqaqlagan tovuq tuxum tug'may qo'ymaydi; *Chose promise, chose dû* (Va'da qilingan narsa, kerak bo'lgan narsa; Va'daga vafo - mardning ishi, vafosiz - subutsiz kishi); *La critique est aisée et l'art est difficile* (Tanqid oson, san'at esa qiyin; Aytish oson, qilish qiyin).

I.I.Kovtunovanning fikricha, XX asrda til taraqqiyotiga bog'liq holda kontrastning ham turli ko'rinishlari yuzaga kelmoqda: 1) semantik kontrast – o'zaro uzoq bo'lgan, odatda o'zaro mos bo'lmagan ma'nolar birlashishidan tuzilgan tushuncha; leksik sathda u oksimoron tarzida aks etadi; 2) stilistik kontrast matnda turli uslublarga oid elementlarning birlashuvini ifodalaydi; u nutqda turli obrazli, metaforik ifodalarni hosil qiluvchi usul sifatida xizmat qiladi; 3) ritmik-sintaktik kontrast, matnda izchil o'tib kelayotgan ritm va sintaksisning to'qnashuvida kuzatiladi; 4) kompozitsion kontrast, matnda qismlarning turli metrikaga oid strukturalar, she'r va prozaik parchalar bilan almashinuvidan iborat bo'ladi<sup>23</sup>. Semantik kontrastga quyidagi misolni keltirish mumkin: *Le premier ministre, Gordon Brown, très actif depuis des mois pour tenter d'enrayer la crise économique, a de nouveau rappelé hier, en présentant son plan, qu'“aucun pays ne peut résoudre à lui seul ce qui est en réalité une crise financière internationale”*<sup>24</sup> (Bosh vazir Gordon Braun bir necha oy davomida iqtisodiy inqirozni to'xtatishga

<sup>20</sup> So'z [Elektron resurs]. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/so-z-va-terminologiya/viewer> (Murojaat sanasi: 20.04.2023)

<sup>21</sup> Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004. – С.207.

<sup>22</sup> Андреева Г.В. Языковое выражение контраста и его стилистические функции в художественной прозе (на материале английского языка): Автореф. дис. канд. филол. наук: 10.02.04. – Л.: ЛГПИ им. А.И.Герцена, 1984. – С.7.

<sup>23</sup> Ковтунова И.И. Некоторые направления эволюции поэтического языка в XX в. // Очерки истории языка русской поэзии XX в. – М.: Наука, 1990. – С. 13-14.

<sup>24</sup> Analyse sémantique du texte [Elektron resurs]. – URL: <https://gerflint.fr/Base/Pologne6t2/trybisz.pdf> (Murojaat sanasi: 05.05.2023)

harakat qilib, kecha o‘z rejasini taqdim etar ekan, hech bir davlat xalqaro iqtisodiy inqirozni yolg‘iz o‘zi hal qila olmasligini, yana bir bor ta’kidladi).

Stilistik kontrastda qiyoslash uslubidan "Je suis belle, ô mortels, comme un rêve de pierre" ("Men go‘zalman, odamlar, tosh orzusi (haykal) kabi"); metaforadan "Chaque fleur est une âme à la nature éclosée" (Har bir gul go‘zal tabiat uchun ruhdur); metonimiyadan "J’ai reconnu le fer, instrument de sa rage" (Men uning g‘azabining asbobi, temirni (qilichni) tanidim) va boshqa uslublardan foydalaniladi.

Kontrast doirasida amal qiluvchi hodisalar orasida lingvistik antonimiya muhim o‘rin tutadi, shuning uchun mualliflar tomonidan qo‘llangan antonimlar tarkibini ko‘rib chiqishda kontrast sistemalarini o‘rganish muhim o‘rin egallaydi. Antonimlar (anti ... va yun. onoma – ism, nom) – zid ma’noli til birliklarining uch turi mavjud: 1) leksik antonim (baland – past [haut – bas], uzun – qisqa [long – court]); 2) affiks – antonim. (suvli – suvsiz [aqueux – sans eau]); 3) sintaktik antonim. (yuz – bashara [visage – gueule]).

Umuman olganda, kontrast nisbatan keng hodisa, u o‘zida qarama-qarshi ma’noni anglatuvchi so‘zlar va boshqa til birliklarini qamrab oladi. Antonimiya yoki kontrast doirasida qaraluvchi barcha hodisalar so‘zlar o‘rtasidagi ma’noviy ziddiyatga asoslanadi. Antonimik juftliklar farqlanuvchi variantlarda namoyon bo‘ladi: a) uslubiy bo‘yog‘i; b) qo‘llanilish darajasi; v) ma’no ko‘lami.

Hozirgi tilshunoslikda semantik antonimlarning uch turi farqlanadi:

1) kontrar (qarama-qarshi) antonimlar. Bular predmetlar, belgilar, jarayonlar, munosabatlar va antonimik paradigmaning "o‘rta" a‘zosi tarkibiga kiruvchi paradigmaning ijobiy yoki salbiy hisoblanuvchi a‘zolari – neytral ma’noli so‘zlar. Masalan: sevimli – befarq – jirkanch [préféré – indifférent – vilain]; 2) kontradiktor ((iltifotli, qarama-qarshi) antonimlar, predmetlar, belgilar, jarayonlar, munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yishni, birining mavjudligi ikkinchisining yo‘qligini ifodalaydi. Masalan: hayot – o‘lim [la vie – la mort]; 3) vektor antonimlar turli yo‘nalishdagi harakat va belgilar tafovutini aks ettiradi. Masalan: kirmoq – chiqmoq [entrer – sortir]<sup>25</sup>.

